



**NAMANGAN VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

NAMANGAN VILOYATIDA QURILISH ISHLARI

**2023- YIL
YANVAR-IYUL**



2023-yilning yanvar-iyul oyida, Namangan viloyatida jami **3877,9** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʻati 2022- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan **104,7 %** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi: Yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, *birlikda*



Yillar kesimida soni



Hududlar kesimida



825

Bino va inshootlar qurilishi

247

Fuqarolik obyektlarini qurilishi

559

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2022- yil bilan solishtirganda 67,6 foizni tashkil etgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 50,6 foiz ulushi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 15,1 foiz ulushi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 34,3 foiz ulushni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.08.2022- y.	01.08.2023- y.	
Namangan viloyati	2406	1631	67,8

tumanlar:

Mingbuloq	79	59	74,7
Kosonsoy	256	167	65,2
Namangan	121	74	61,2
Norin	133	91	68,4
Pop	117	100	85,5
To'raqo'rg'on	107	69	64,5
Uychi	240	168	70,0
Uchqo'rg'on	172	126	73,3
Chortoq	172	108	62,8
Chust	173	119	68,8
Yangiqo'rg'on	103	83	80,6
Namangan shahar	733	467	63,7
shundan			
Davlatobod	208	132	63,5
Yangi namangan	164	113	68,9



2023- yil 1- avgust holatiga ko'ra Namangan viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Namangan sh.(28,6)



Uychi (10,3)



Kosonsoy (10,2)



- Namangan .shahar
- Minbuloq
- Kosonsoy
- Namangan
- Norin
- Pop
- To'raqo'rg'on
- Uychi
- Uchqo'rg'on
- Chortoq
- Chust
- Yangiqo'rg'on



Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul uchun


	Qurilish ishlari, mln. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
Namangan viloyati tumanlar:	3877895,4	277937,2	2435300,7	1164657,5
Mingbuloq	122596,5	0,0	70340,1	52256,4
Kosonsoy	329609,6	53963,1	122193,5	153453,0
Namangan	292475,6	0,0	207876,3	84599,3
Norin	196259,4	0,0	107562,9	88696,5
Pop	229863,1	65259,3	108082,4	56521,4
To'raqo'rg'on	208474,7	15460,0	123707,0	69307,7
Uychi	412438,4	49428,5	288256,0	74753,9
Uchqo'rg'on	292516,8	0,0	170010,2	122506,6
Chortoq	266531,6	0,0	176516,7	90014,9
Chust	211072,2	0,0	98116,7	112955,5
Yangiqo'rg'on	202971,0	0,0	102602,1	100368,9
Namangan sh. shundan	1113086,5	93826,3	860036,8	159223,4
Davlatobod	403170,0	0,0	362009,0	41161,0
Yangi Namangan	242988,3	29600,2	145954,6	67433,5


2023- yilning yanvar-iyul oyida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 277937,2 mln. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 101,1% ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,3 % punktga kamayib 7,2 % ni tashkil etdi.

Qurilish ishlari 2023- yil yanvar- iyul uchun



Pudratchi – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





MA'LUMOT UCHUN: yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Uychi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 12,0 %) ga to'g'ri keldi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-iyul oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 62,8% i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 0,2 % punktga kamaygan. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan 106,2 % ni tashkil etgan holda 2435300,7 mln. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



62,8

2023- yil yanvar-iyul

63,0

2022- yil yanvar-iyul




MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Namangan shahri (860036,8 mln. so'm hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 77,3 %), Namangan tumani (197876,3 mln. so'm yoki 70,1 %), Uychi tumani (288256,0 mln. so'm yoki 69,9 %)ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **30,0 %** ni tashkil etdi yoki **1164657,5 mln. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yil yanvar-iyul oylariga nisbatan **102,6 %** ni tashkil etdi.



Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami 132804,1 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa 3745091,3 mln. so'm qurilish ishlari bajarildi.

2022- yil yanvar-iyul



2023- yil yanvar-iyul



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,
rekonstruksiya, kengaytirish,
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi
2023- yil yanvar-iyul oylarida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi qurilishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **76,6 %** yoki **2970075,2** mln. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

9,3 %

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan 277937,1 mln. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **9,3 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan 1599740,9 mln. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **53,9 %** ni tashkil etdi

53,9 %

36,8 %

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi **1092397,2** mln. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **36,8 %** ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyul oylarida

	Qurilish ishlari, mln. so'm	O'sish sur'ati, % da	Shu jumladan yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirish
Namangan viloyati	3877895,4	104,7	2970075,2
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	122596,5	118,2	93896,5
Kosonsoy	329609,6	110,2	222746,8
Namangan	292475,6	106,6	253707,4
Norin	196259,4	99,2	150314,8
Pop	229863,1	88,5	176051,9
To'raqo'rg'on	208474,7	101,2	189371,3
Uychi	412438,4	99,0	315886,2
Uchqo'rg'on	292516,8	103,9	194337,5
Chortoq	266531,6	99,2	204136,2
Chust	211072,2	97,3	161660,0
Yangiqo'rg'on	202971,0	113,7	185155,9
Namangan shahri	1113086,5	111,4	822810,7
<i>shundan</i>			
Davlatobod	403170,0	103,3	308787,4
Yangi Namangan	242988,3	100,1	205785,4


**Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda*



Ma'lumot uchun: Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



Viloyatda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Ma'lumot uchun: Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

Bino va inshootlar qurilishi



ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 3,9 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,5 % punktga kamaygan.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kopayib, 53,9 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,2 % punktga ko'payib, 42,0 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 42,1 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 18,5 % punktga ko'paygan.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 57,9 % (18,5% punktga kamaygan) hamda norasmiy sektorning ulushi 0,0 % ni tashkil etdi (0,0% punktga kamaygan).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari



Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yil yanvar-iyul



2023- yil yanvar-iyul

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 11,8 % punktga kopaygan va 99,4 % ni tashkil etdi. Qolgan 0,6 % ni kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 11,8 % punktga kamaygan.

ulushi % da

12,4

2022- yil
yanvar-iyul

2022- yil
yanvar-iyul

87,6

0,6

2023- yil
yanvar-iyul

2023- yil
yanvar-iyul

99,4

Yirik qurilish
tashkilotlari
ulushi

Kichik korxonalar va
mikrofirmalar
ulushi

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyulda



	Aholi jon boshiga qurilish ishlari, ming. so'm	O'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	1287,1	108,8
<i>tumanlar:</i>		
Mingbuloq	910,1	123,7
Kosonsoy	1472,8	115,5
Namangan	1545,9	110,5
Norin	1133,1	104,3
Pop	989,5	92,0
To'raqo'rg'on	865,8	105,1
Uychi	1806,6	102,2
Uchqo'rg'on	1602,8	108,9
Chortoq	1262,0	103,5
Chust	751,1	102,7
Yangiqo'rg'on	870,0	119,2
Namangan shahri	1630,7	114,3

Hududlar kesimida aholi jon boshiga qurilish ishlari 2023- yil yanvar-iyulda



Hududlar kesimida 2023- yil yanvar-iyul oylarida aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi bo'yicha birinchi o'rinni Uychi tumani – 1806,6 ming so'm yoki, 2022- yilning yanvar-iyul oyiga nisbatan 102,2 %, undan keyin mos ravishda Namangan shahar – 1630,7 ming so'm (yoki 114,3 %), Uchqo'rg'on tumani – 1602,8 ming so'm (yoki 108,9 %) tumanlari egalladi.

**Namangan viloyati Investitsiyalar va
qurilish statistikasi
boshqarmasi**

Aloqa telefoni: **(69) 227-84-85**